



### Sirdaryo viloyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ish haqi ko'rsatkichlarini umumlashtirish natijasida, 2020-yil yanvar-iyun oylarida Sirdaryo viloyatida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 180,1 ming so'mni (ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to'lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig'i, ijtimoiy sug'urta va kasaba uyushmasiga to'lovlar ham mavjud) tashkil etdi.

#### Tarmoqlar kesimida o'rtacha oylik ish haqi (2020-yil yanvar-iyun, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'yektlaridan tashqari)

	<i>Xodimlar soni, kishi</i>	<i>Ish haqi fondi, mlrd. so'm</i>	<i>O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm</i>
<b>Viloyat bo'yicha-jami</b>	<b>67347</b>	<b>831,5</b>	<b>2180,1</b>
<i>shu jumladan:</i>			
sanoat	11187	131,3	2148,7
qurilish	148	4,0	4255,6
savdo	1014	18,3	3047,0
Tashish va saqlash	1545	13,3	1658,6
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	33	0,3	1399,5
Axborot va aloqa	504	7,4	2461,8
bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik	1891	45,5	3948,4
Ta'lim	26819	307,7	2005,1
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	13566	148,4	1925,2
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	484	4,3	1573,5
Boshqa faoliyat turlari	10156	151,0	2485,5

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini viloyat tumanlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Shirin shahrida **2 825,5** ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan **129,6 %**), Guliston shahrida **2 508,9** ming so'mni (**115,1 %**) va Yangiyer shahrida **2 349,9** ming so'mni (**107,8 %**) tashkil etgan bo'lsa, Mirzaobod tumanida **1 500,2** ming so'mni (**68,8 %**) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

### Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (2020-yil yanvar-iyun, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da)




**Ma'lumot uchun:** Ma'lumot uchun: "O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi" ko'rsatkichi iqtisodiyotda ish haqini baholashning uslubiy qoidalariga va xalqaro tavsiyalarga muvofiq, muayyan vaqt (soat, oy, yil) davomida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar (bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar) evaziga ish beruvchilar tomonidan amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda, soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimlarning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxslarga pul shaklida hisoblangan daromadlardan aniqlanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.12.2019 yildagi 4555-son "Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq, joriy yilning 1 fevralidan boshlab mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori 679 330 so'mni tashkil etadi.

**Sirdaryo viloyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi**  
(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik  
sub'yektlaridan tashqari, ming so'm)

	<b>2019-yil Yanvar-iyun</b>	<b>2020-yil Yanvar-iyun</b>	<b>O'sish sur'ati, %</b>
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>1779,7</b>	<b>2180,1</b>	<b>122,5</b>
Guliston sh.	1952,6	2508,9	128,5
Shirin sh.	2247,3	2825,5	125,7
Yangiyer sh.	1934,5	2349,9	121,5
<i>tumanlar:</i>			
Oqoltin	1662,4	1987,2	119,5
Boyovut	1694,5	2195,0	129,5
Guliston	1560,8	1894,1	121,4
Sayxunobod	1812,4	2254,4	124,4
Mirzaobod	1256,9	1500,2	110,6
Sardoba	1619,6	1914,9	118,2
Sirdaryo	1674,0	1869,0	111,6
Xovos	1736,1	2168,7	124,9

## Sirdaryo viloyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

2020-yil yanvar-iyun (dastlabki ma'lumot)



**Ish haqi.** 2020-yilning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko'rsatmoqda:



- Sanoat iqtisodiy faoliyat turida 11,2 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 16,6 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 131,3 mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 15,8 % ni) tashkil etgan. Sanoat sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2148,7 ming so'mni tashkil etdi.




- Qurilish iqtisodiy faoliyat turida 0,2 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,3 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 4,0 mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 0,5 % ni) tashkil etgan. Qurilish sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4255,6 ming so'mni tashkil etdi.



## Sirdaryo viloyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

2020-yil yanvar-iyun (dastlabki ma'lumot)



• Ahborot va aloqa faoliyat turida 0,5 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 0,1 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 7,4 mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 0,9 % ni) tashkil etgan. Ahborot va aloqa sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2461,8 ming so'mni tashkil etdi.



• Tashish va saqlash faoliyat turida 1,5 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 2,2 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 13,3 mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 1,6 % ni) tashkil etgan. Ahborot va aloqa sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1658,6 ming so'mni tashkil etdi..

• Ta'lim sohasida 26,8 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 39,8 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 307,7 mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 37,0 % ni) tashkil etgan. Ta'lim sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2005,1 ming so'mni tashkil etdi





.Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida 1,9 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 2,8 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 45,5 mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 5,5 % ni) tashkil etgan. Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3948,4 ming so'mni tashkil etdi.

.Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida 13,6 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 20,2 % ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 148,4 mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 17,8 % ni) tashkil etgan. Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1925,2 ming so'mni tashkil etdi.

